# BUXORO VILOYATI KOGON SHAHAR HOKIMI
# Q A R O R I

2021 - yil 3 - dekabr 168-2-208-Q/21 Kogon shahar hokimligi

**2022 yilda shahardagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi “Aholi banigi to‘g‘risida”gi Qonunining 38-39-moddalari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 11.12.2017 y., 09/17/965/0393-son) Nizomga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida

**QAROR QILAMAN:**

**1.** Kogon shahar Aholi bandligiga ko‘maklashish markazining ish joylarining eng kam miqdorini band qilib qo‘yish to‘g‘risidagi taklifi ma'qullansin. Ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlashishga qodir bo‘lmagan shaxslar uchun ish joylarining eng kam miqdori (kvotalangan ish o‘rinlari) ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

**2.** Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish xodimlarning ro‘yxat bo‘yicha o‘rtacha soni yigirma nafardan ko‘pni tashkil etadigan korxona, muassasa va tashkilotlar uchun xodimlarning ro‘yxat bo‘yicha o‘rtacha sonidan 622 kishini tashkil etadigan 5 foizdan ortiq bo‘lmagan miqdorida, shu jumladan:

o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalari va nogiron bolalari bor yolg‘iz ota, yolg‘iz onalarga hamda ko‘p bolali ota-onalar uchun 12,3 foiz (77 kishi);

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarini tamomlab kasbga ega bo‘lgan yoshlar, 34,5 foiz (215 kishi);

“Mehribonlik” uylarining bitiruvchilari, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta'lim olgan bitiruvchilari uchun 33,9 foiz (211 kishi);

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilganlar uchun 6,2 foiz (39 kishi);

nogironlar uchun 1,7 foiz (11 kishi);

shahar Axoli bandligiga ko‘maklashish markazida ish qidiruvchi sifatida hisobda turgan

pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun 0,1 foiz (1 kishi);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko‘ra tibbiy yo‘sindagi majburlov choralariga tortilgan shaxslar uchun 1,1 foiz (7 kishi);

odam savdosidan jabrlanganlar uchun 0,1 foiz (1 kishi);

ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan fuqarolarning boshqa toifalari uchun shu jumladan kichik yoshli bolalari bo‘lgan ishlamayotgan ayollar, kambag‘al oilaning ishsiz shaxslari uchun, og‘ir sharoitda yashovchi ayollar uchun, oliy ta'limni to‘lov shartnomasi asosida bitiruvchilar va mehnat muxojirlari 9,6 foiz (60 kishi) miqdorida ish o‘rinlari zaxirasi belgilansin.

**3.** Korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlari ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun ko‘rsatilgan ish o‘rinlari tashkil etilishini ta'minlasinlar.

**4.** O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida”gi (AV ro‘yxat raqami №-3163-son, 31.05.2019 y) buyrug‘iga asosan subsidiyalar ajratib berish tartibi amaliyotga joriy etilganligini hisobga olib, “ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga – har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida haq to‘lash belgilab qo‘yilsin.

**5.** Ushbu qarorning ikkinchi bandida ko‘rsatilgan shaxslarni ishga qabul qilishni asossiz rad etgan ish beruvchi va uning vakolatli shaxslari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarligi belgilab qo‘yilsin.

6. Shahar Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi (I.SHadiev) qaror tasdiqlangan kundan boshlab bir hafta muddatda mazkur qarorni tegishli korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlari e'tiboriga yetkazsin va uning bajarilishi ustidan qat'iy nazoratni ta'minlasin.

**7.** Mazkur qaror “Kogon Hayoti” gazetasida e'lon qilinsin hamda hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

**8.** Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran uch oydan so‘ng kuchga kiradi.

**9.** Qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining iqtisodiyot va tadbirkorlik masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari A.Rajabov zimmasiga yuklatilsin.

**хоким** **H.H.Davlatov**

Когон шаҳар ҳокимининг
2021 йил 3 декабрдаги
168-2-208-Q/21-сон қарорига
1-илова

SHahar hokimining 2021 yil "___" _____

_____ - sonli qaroriga ilova

**Korxona, tashkilot va muassasalarda kvotalangan ish o‘rinlari**

| T/R | Korxona, tashkilot va muassasalar nomi va tarmog‘i | Jami ishlovchilar soni | Band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlarining jami | Shundan | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | o‘n to‘rt yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar | umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarini tamomlab kasbga ega bo‘lgan yoshlar | “Mehribonlik” uylarining bitiruvchilari, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta'lim olgan bitiruvchilari uchun | Safrbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolla kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun | nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun | pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun | Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko‘ra tibbiy yo‘sindagi majburlov choralariga tortilgan shaxslar uchun | Odam savdosi qurbonlar uchun | Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan fuqarolarning boshqa toifalari uchun shu jumladan kichik yoshli bolalari bo‘lgan ishlamayotgan ayollar, kambag‘al oilaning ishsiz shaxslari uchun, og‘ir sharoitda yashovchi ayollar uchun, oliy ta'limni to‘lov shartnomasi asosida bitiruvchilar va mehnat muxojirlari uchun |
| **1** | **2** | **3** | **4** | **5** | **6** | | **7** | **8** | **9** | **10** | **11** | **12** |
| 1 | Paxta tozalash aksiyadorlik jamiyati | 274 | 23 | 4 | 5 | 5 | 1 | 6 | | | | 2 |
| 2 | Kogon Yog‘ aksiyadorlik jamiyati | 516 | 26 | 4 | 7 | 8 | 3 | 1 | | 1 | 1 | 1 |
| 3 | Kogondonmaxsulotlari aksiyadorlik jamiyati | 140 | 9 | 1 | 2 | 2 | 1 | | | | | 3 |
| 4 | Buxoro gips aksiyadorlik jamiyati | 104 | 4 | 1 | 1 | 1 | 1 | | | | | |
| 5 | Kogon shahar Obodonlashtirish boshqarmasi | 209 | 20 | 10 | | | 1 | 2 | 1 | 2 | | 4 |
| 6 | Kogon shahar tibbiyot birlashmasi | 795 | 35 | 5 | 12 | 13 | | | | | | 5 |
| 7 | Buxoro-1 bekatidagi temir yo‘l kasalxonasi | 247 | 12 | 2 | 4 | 3 | | | | | | 3 |
| 8 | Buxoro tarmoq Sanitariya epidimalogiya stansiyasi | 32 | 3 | | 2 | 1 | | | | | | |
| 9 | Kogon shahar davlat sanitariya epidimalogiya nazorat markazi | 50 | 3 | 1 | 1 | 1 | | | | | | |
| 10 | "Muborakneftigazmontaj" aksiyadorlik jamiyatiga qarashli "Trubodetall" unitar korxonasi | 582 | 24 | 3 | 7 | 8 | 3 | 1 | | 2 | | |
| 11 | Kogon Ellektromantajchi unitar korxonasi | 153 | 10 | 2 | 3 | 3 | 1 | | | 1 | | |
| 12 | Buxoro mintaqaviy temir yo`l uzeli | 650 | 55 | | 20 | 20 | 10 | | | | | 5 |
| 13 | Buxoro lokamativ deposi | 743 | 33 | 2 | 12 | 13 | 2 | | | | | 4 |
| 14 | Buxoro vagon deposi | 835 | 36 | 4 | 13 | 12 | 2 | | | | | 5 |
| 15 | 17-son Yo`l mashinalar stansiyasi Buxoro-1 stansiyasi | 697 | 35 | 9 | 7 | 6 | 3 | | | | | 10 |
| 16 | Buxoro aloqa va ishorat masofasi | 344 | 21 | 3 | 7 | 7 | 1 | | | | | 3 |
| 17 | Buxoro temir yo`l masofasi | 926 | 39 | 2 | 17 | 18 | 1 | | | | | 1 |
| 18 | Buxoro lektr bilan ta'minlash distansiyasi | 375 | 17 | | 7 | 7 | 1 | | | | | 2 |
| 19 | Neftigazavtotransxizmat unitar korxonasi | 112 | 9 | 1 | 2 | 2 | | | | | | 4 |
| 20 | Buxoroneftigazavtonakl aksiyadorlik jamiyati | 260 | 17 | 2 | 6 | 7 | 1 | | | 1 | | |
| 21 | Бухоро бирлашган ёқилғи мой омборлари хўжалиги | 241 | 15 | 4 | 4 | 4 | 2 | 1 | | | | |
| 22 | Buxoro 1 bekati temir yo`l ustaxonasi | 432 | 20 | 4 | 5 | 5 | 1 | | | | | 5 |
| 23 | Buxoro ixota daraxtlarini o`tqazish qo`riqlash masofasi | 297 | 5 | | 2 | 1 | | | | | | 2 |

| | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 24 | Когон Магистрал газ қувурлари (КЛПУМГ) | 338 | 15 | 5 | 5 | 5 | | | | | | |
| 25 | Aksiyadorlik tijorat banki Xalq bank Buxoro viloyat Kogon filiali | 56 | 3 | | 2 | 1 | | | | | | |
| 26 | Aksiyadorlik tijorat banki Qishloq qurilish bank Buxoro viloyat Kogon filiali | 72 | 4 | | 2 | 2 | | | | | | |
| 27 | O`zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki Buxoro viloyat bo`limi Kogon filliali | 37 | 2 | | 1 | 1 | | | | | | |
| 28 | Kogon shahar madaniyat va aholi dam olish markazi | 33 | 3 | 1 | 1 | 1 | | | | | | |
| 29 | Kogon sanoat va transport kolleji | 99 | 4 | | 2 | 2 | | | | | | |
| 30 | Kogon maktabgacha ta'lim va xizmat ko`rsatish kasb hunar kolleji | 74 | 3 | | 2 | 1 | | | | | | |
| 31 | Kogomn shahar xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo`limi | 45 | 3 | | 1 | 2 | | | | | | |
| 32 | Kogon shahar bolalar va o`smirlar sport maktabi | 52 | 3 | | 1 | 2 | | | | | | |
| 33 | Kogon shahar 2-son Bolalar musiqava san'at maktabi | 70 | 4 | | 2 | 2 | | | | | | |
| 34 | Kogon shahar Barkamol avlod bolalar markazi | 32 | 2 | | 1 | 1 | | | | | | |
| 35 | Kogon shahar 1-son umumta'lim maktab | 52 | 3 | | 2 | 1 | | | | | | |
| 36 | Kogon shahar 2-son umumta'lim maktab | 30 | 2 | | 1 | 1 | | | | | | |
| 37 | Kogon shahar 3-son umumta'lim maktab | 77 | 4 | | 2 | 2 | | | | | | |
| 38 | Kogon shahar 4-son umumta'lim maktab | 69 | 4 | | 2 | 2 | | | | | | |
| 39 | Kogon shahar 5-son umumta'lim maktab | 37 | 3 | 1 | 1 | 1 | | | | | | |
| 40 | Kogon shahar 6-son umumta'lim maktab | 62 | 4 | | 2 | 2 | | | | | | |
| 41 | Kogon shahar 7-son umumta'lim maktab | 102 | 5 | | 3 | 2 | | | | | | |
| 42 | Kogon shahar 8-son umumta'lim maktab | 112 | 6 | | 3 | 3 | | | | | | |
| 43 | Kogon shahar 9-son umumta'lim maktab | 86 | 5 | | 2 | 3 | | | | | | |
| 44 | Kogon shahar 10-son umumta'lim maktab | 109 | 5 | | 2 | 3 | | | | | | |
| 45 | Kogon shahar 1-son maktabgacha ta'lim muassasasi | 41 | 2 | | 1 | 1 | | | | | | |
| 46 | Kogon shahar 2-son maktabgacha ta'lim muassasasi | 28 | 2 | | 1 | 1 | | | | | | |
| 47 | Kogon shahar 3-son maktabgacha ta'lim muassasasi | 40 | 2 | | 1 | 1 | | | | | | |
| 48 | Kogon shahar 4-son maktabgacha ta'lim muassasasi | 56 | 2 | | 1 | 1 | | | | | | |
| 49 | Kogon shahar 5-son maktabgacha ta'lim muassasasi | 37 | 2 | | 1 | 1 | | | | | | |
| 50 | Kogon shahar 6-son maktabgacha ta'lim muassasasi | 39 | 2 | | 1 | 1 | | | | | | |
| 51 | Kogon shahar 7-son maktabgacha ta'lim muassasasi | 27 | 2 | | 1 | 1 | | | | | | |
| 52 | Kogon shahar 8-son maktabgacha ta'lim muassasasi | 51 | 4 | | 2 | 2 | | | | | | |
| 53 | Kogon shahar 9-son maktabgacha ta'lim muassasasi | 36 | 2 | | 1 | 1 | | | | | | |
| 54 | Kogon shahar 11-son maktabgacha ta'lim muassasasi | 34 | 2 | | 1 | 1 | | | | | | |
| 55 | Kogon shahar 12-son maktabgacha ta'lim muassasasi | 61 | 4 | | 2 | 2 | | | | | | |
| 56 | Kogon shahar 13-son maktabgacha ta'lim muassasasi | 40 | 2 | | 1 | 1 | | | | | | |
| 57 | Kogon shahar 14-son maktabgacha ta'lim muassasasi | 63 | 3 | | 2 | 1 | | | | | | |

| | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 58 | Kogon shahar 15-son maktabgacha ta'lim muassasasi | 27 | 2 | | 1 | 1 | | | | | | |
| 59 | Kogon shahar 16-son maktabgacha ta'lim muassasasi | 41 | 2 | | 1 | 1 | | | | | | |
| 60 | Kogon shahar 17-son maktabgacha ta'lim muassasasi | 41 | 2 | | 1 | 1 | | | | | | |
| 61 | Kogon shahar 18-son maktabgacha ta'lim muassasasi | 34 | 2 | | 1 | 1 | | | | | | |
| 62 | Kogon Maktabgacha ta'lim bo`limi | 21 | 2 | | 1 | 1 | | | | | | |
| 63 | Kogon shahar 17-son ixtisoslashtirilgan Davlat umuta'lim maktabi | 64 | 3 | | 2 | 1 | | | | | | |
| 64 | Minokor Ma'suliyati cheklangan jamiyati | 28 | 2 | | 1 | | 1 | | | | | |
| 65 | Kopriksoz serviz ma'suliyati cheklangan jamiyati | 58 | 5 | 2 | 1 | 1 | 1 | | | | | |
| 66 | "UMID- MEDICAL- CENTRE" mas‘uliyati cheklangan jamiyati | 25 | 2 | | 1 | 1 | | | | | | |
| 67 | Baxtli Sherzod ma'suliyati cheklangan jamiyatining Buxoro gaz to`ldirish stansiyasi unitar koronasi | 22 | 2 | | 1 | | 1 | | | | | |
| 68 | "DON ISSIQ NON INVEST" mas‘uliyati cheklangan jamiyati | 33 | 3 | 2 | 1 | | | | | | | |
| 69 | Buxoro yo`lovchilarni tashishni tashkil etish filliali (temir yo`l vokzali) | 176 | 6 | 2 | 1 | 1 | 1 | | | | | 1 |
| | **Жами** | **11781** | **622** | **77** | **215** | **211** | **39** | **11** | **1** | **7** | **1** | **60** |